



## INNOVATSION PED-TEXNOLOGIYALARING INTENSIV TIL KURSIDA ISHLATISH

*Ubaydullayeva Aziza Azimovna*

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari "TYH" markazi*

*Ingliz tili oqituvchisi*

**Annotatsiya:** Ilm-fan rivojlanayotgan, yangiliklar shiddat bilan kirib kelayotgan jamiyatimizda o'qituvchi pedagog yuksak salohiyatga ega hamda bilimdon bo'lishini taqozo etmoqda. Shuningdek, ushbu sohadagi innovatsion faoliyatga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitish metodikasi hamda Innovatsion ped texnologiyalarning intensiv til kursida ishlatish haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar :** Ingliz tili, til, intensiv til kurslari, innovatsion faoliyati, pedagogik texnologiyalar, axborot kommunikatsiya vositalari.

**Аннотация:** В нашем обществе, где наука развивается и стремительно приходят инновации, учителю и педагогу необходимо иметь высокий потенциал и быть знающими. Также большое внимание уделяется инновационной деятельности в этой сфере. В данной статье представлена информация о методике преподавания английского языка и использовании инновационных педагогических технологий на интенсивном языковом курсе.

**Ключевые слова:** английский язык, язык, интенсивные языковые курсы, инновационная деятельность, педагогические технологии, средства информационной коммуникации.

**Annotation:** In our society, where science is developing and innovations are coming rapidly, it is necessary for a teacher and pedagogue to have high potential and be knowledgeable. Also, great attention is paid to innovative activities in this field. This article provides information on the methodology of teaching English and the use of innovative pedagogical technologies in an intensive language course.

**Keywords:** English language, language, intensive language courses, innovative activities, pedagogical technologies, information communication tools.

Pedagogikaning rivojlangan tajribalari hamda ta'limda erishilgan yutuqlarni amaliyotga olib kirish bugungi kunning muhim shartlaridan hisoblanadi. Hozirda o'qituvchi o'z faoliyati davomida foydalana olishi mumkin bo'lgan ulkan tajribalar bazasi shakllangan va u kundan-kunga yanada boyib bormoqda. Lekin shunga qaramasdan, o'qituvchilar va bo'lg'usi kasb egalari tomonidan ana shu tajribalarni o'zlashtirib olishlari birmuncha mushkullik bilan amalga oshmoqda. Pedagogning mavqeyi ilg'or tajribalarni vujudga keltirishda va ularni kasbdoshlari o'rtasida ommalashtirishda, ayniqsa, ahamiyatlidir. Ta'lim beruvchi yangi ilg'or pedagogik tajribani amaliyotga joriy etishda uning qimmati hamda qay darajada samarali



ekanligiga e'tibor berishi kerak. O'qituvchi amaliy faoliyatining innovatsiyaga yo'nalganligi nazariy pedagogik tadqiqotlar natijasida erishilgan yutuqlarni amaliyotga joriy etish imkoniyatini beradi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati yaratuvchilik hamda ijodiy faoliyat natijasidir. Ushbu faoliyatda o'qituvchining ko'plab qirralari namoyon bo'ladi. Har tomonlama zukko pedagogning mahorati quyidagi sifatlar bilan belgilanadi:

- shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intelektual kamolotga intilish;
- hayot davomida o'qib-o'rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish;
- o'zini nazorat qila bilish, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'lish;
- o'qib-o'rganganlarini amalda qo'llay olish.

Pedagogik texnologiya - bu o'quv jarayonini zamonaviy tashkil etish tizimi bo'lib, u ta'limning zaruriy sifatini ta'minlaydi va jadallahgan ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga javob beradigan, ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiq etishning izchil metodidir. Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo'lib hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya-texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning xamma jarayonlarini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodi. Ta'lim jarayonida yangi innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tish, so'nngi texnikalar bilan jihozlangan laboratoriya xonalaridan foydalangan holda mashg'ulotlar o'tkazish, mutaxasislik bo'yicha, masalan kimyo sohasidagi so'nggi innovatsiyalar haqida ma'lumotlar keltirib, jahon tajribasidan namunalar keltirib o'tish talabalarni yangilik yaratish ruhida tarbiyalashga turtki bo'ladi.

Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori, avvalambor, farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak<sup>41</sup>. Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omil – bu ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilm-u ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Albatta, ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Shu bois, bu sohada yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o'ylanmagan ishlarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Maktab, ta'lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi asosiy qonunlarimizda belgilab qo'yilgan. Shu bilan



birga bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va keng qo'llab-quvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladir. Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lif va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota-onas, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida, avvalo, shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lif-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lif va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi. Ta'lifni tarbiyadan, tarbiyanı esa ta'lifdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi. Hozirgi globallashuv davri barcha insonlardan bir necha tillarni mukammal bilishni talab etmoqda. Xususan, yurtimizda ham nafaqat ingliz tili, balki nemis va fransuz tillarini chuqur o'rgatilishiga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Har qanday xorijiy tilni o'rganish boshlang'ich sinflardan boshlab o'rgatilishi darslarga alohida yondashishni talab qilmoqda. O'quvchilarning tilga qiziqishini oshirish va ular egallagan bilimlarni mustahkamlash uchun o'qituvchi izlanishi o'z ustida ishlashi kerak, albatta. Yosh o'quvchilar bilan ishlash jarayonida ularning yoshini, qiziqishini, iste'dodini, dunyoqarashini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Chet tillarini o'rganishning maktabgacha ta'lif muassasalari va boshlang'ich sinf darslariga kirib kelishi chet tili o'rganishning hozirgi jamiyat hayotidagi yuqori o'rni va uning o'quv fani sifatidagi katta ta'lif-tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligiga bog'liq. Bola chet tilini o'rganishni qanchalik erta boshlasa, uning samarası shunchalik yaxshi bo'ladi.

Til o'rganish mashg'ulotlarida innovatsion tafakkurga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

- jamiyatda o'zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o'zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;
- o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish;
- muloqotga kirishganda suhbatdosh fikrini hurmat qila olish;
- ijtimoiy moslashuvchanlik,o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;
- muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish.

Chet tili darslari har bir o'quvchiga qiziqarli va maroqli bo'lishi, ularning tafakkurini rivojlantirish uchun o'qituvchi darslarda chet tilidagi harakatli o'yinlar, har xil she'rlar, topishmoqlar, tez aytishlar, qo'shiqlardan foydalanishi ahamiyatlidir. Kuylash orqali, ya'ni she'rlarni ritmga solib aytish orqali bolada "til hissi" uyg'onadi. Hozirgi davr talabi xorijiy tillarni mukammal o'rganish va uni hayotga



tatbiq etish muhim ekanligini inobatga olgan holda, dars jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ingliz tilini chuqur o'rganish uchun zamin bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, til o'rganish mashg'ulotlari va darslarida innovatsion tafakkurni rivojlantirishda "Innovatsion texnologiyalar" va "Interfaol metod va usullar", "Yangi pedagogik texnologiyalar" kabi ko'plab yangi tushunchalar kirib kelmoqda. Har bir dars jonli, hissiyotga boy tarzda o'tkazilishi zarur, zero, o'quvchilar darsdagi jarayonning har bir bosqichidan ijobiy taassurot ola olsinlar va ular mashg'ulotdan mamnun bo'lishlari muhimdir. Bunda ko'rgazmali qurollar katta rol o'ynaydi. Turli xil rasmi kartochkalardan, o'yinchoqlardan foydalanishdarsning yorqin va maroqli bo'lishini hamda egallagan bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olishlarini ta'minlaydi.

**Xulosa** shuki, chet tilini yoshlikdan boshlab o'rgatish bolada o'rganilayotgan tilga qiziqish va ijobiy munosabat, xalqlar madaniyatiga qiziqish, o'zini shaxs sifatida ma'lum bir til va madaniy jamiyatga tegishli ekanligini anglash, chet tilini o'rganishning muhimligini tushunish kabi xislatlar shakllanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizzxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. Toshkent TDPU, 2003.
2. Ishmuxamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yullari. Toshkent TDPU, 2004.
3. Yunusovna, S. Z. The Role of the Conversational Implicative in Linguopragmatics on the Basis of Formal and Informal Letters. TDO'TAU, 2022
4. Ochilova G.O., Musaxanova G.O. Pedagogik maxorat. Toshkent. TDIU, 2007
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)